

QADIMGI MIF VA AFSONALARNING MILLIY MADANIYAT VA BADIY TAFAKKUR RIVOJIDAGI O'RNI

Abduvohidova Zarnigorxon Abdumalik qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o'qitish

(o'zbek tili)yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19886332>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi qadimgi mif va afsonalarning insoniyat sivilizatsiyasi shakllanishidagi fundamental roli, ularning madaniy kod sifatida namoyon bo'lishi hamda jahon adabiyoti va san'ati taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri tadqiq etiladi. Shuningdek, mifologik tafakkurning zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mifologiya, sivilizatsiya, tipik obrazlar, kosmogoniya, antropogoniya, badiiy sintez, milliy o'zlik, mifologik syujet.

Аннотация: В данном тезисе исследуется фундаментальная роль древних мифов и легенд в формировании человеческой цивилизации, их проявление как культурного кода, а также влияние на развитие мировой литературы и искусства. Кроме того, анализируется место мифологического мышления в современных социокультурных процессах.

Ключевые слова: Мифология, цивилизация, типичные образы, космогония, антропогония, художественный синтез, национальная идентичность, мифологический сюжет.

Abstract: This thesis explores the fundamental role of ancient myths and legends in the formation of human civilization, their manifestation as a cultural code, and their impact on the development of world literature and art. Additionally, it analyzes the role of mythological thinking in contemporary socio-cultural processes.

Keywords: Mythology, civilization, typical images, cosmogony, anthropogony, artistic synthesis, national identity, mythological plot.

Insoniyat tarixining ilk bosqichlarida dunyoni anglashning yagona usuli bo'lgan miflar bugungi kunda ham fanning turli sohalari — adabiyotshunoslik, psixologiya, sosiologiya va madaniyatshunoslik uchun boy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Global madaniyatlar integratsiyalashgan hozirgi davrda milliy mifologiyani o'rganish xalqning genetik xotirasini tiklash va milliy o'zligini saqlab qolish nuqtai nazaridan yuksak dolzarblikka ega.

Mif — dunyoni modellashtirish tizimidir. Mifologiya shunchaki afsonaviy hikoyalar to'plami emas, balki qadimgi insonning borliq haqidagi universal bilimlari tizimidir. Kosmogonik miflar (dunyoning yaralishi) orqali inson tartibsizlikdan (xaos) tartibni (kosmos) izlagan. [1:15] Masalan, turkiy xalqlar mifologiyasidagi "Dunyo daraxti" (Bayterek) tushunchasi koinotning uch qatlamli (osmon, yer va yer osti) yaxlitligini ifodalovchi falsafiy model bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari mifning kult nomli turi ham mavjud bo'lib, unda tabiat hodisalari haqida miflar yoritib beriladi. Ular insonning tabiat sirlari oldidagi o'zligi va ularni muqaddaslashtirishi natijasida shakllangan. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin: Daraxt va o'simlik kulti-muqaddas daraxtlar (masalan, chinor, archa) atrofida marosimlar o'tkazish, ularni jonli deb hisoblash. Suv kulti miflari-suvni hayot manbai, tozalovchi va jon beruvchi kuch sifatida e'zozlash. Suv bo'ylarini muqaddas sanash. Olov kulti miflari-olovni muqaddas deb bilish, uni tozalovchi kuch sifatida ulug'lash. Mifologik obrazlarning tipik tabiati bu miflarda shakllangan qahramon obrazlari (Kultigin, Alpomish) insoniyat ideallarini o'zida mujassam

etadi. Bu obrazlar insoniyatning jamoaviy ongsizligida o'rin olgan "arxetiplar"dir. Ular asrlar davomida o'zgaras ma'naviy qadriyatlar — adolat, jasorat va fidoyilik timsoli bo'lib kelmoqda. Mifologiya barcha san'at turlarining, xususan, epik dostonchilikning beshigidir. Sharq renessansi adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy va Firdavsiy ijodida mifologik obrazlar (Humo, Simurg', Ajdar) falsafiy ramzlar darajasiga ko'tarilgan. Zamonaviy adabiyotda esa "mifologizm" usuli orqali insoniyatning global muammolari badiiy talqin etilmoqda.

Afsonalar jamiyatda huquqiy va axloqiy me'yorlarning ilk ko'rinishlarini belgilab bergan. Tabiat kuchlariga sig'inish va ularni muqaddas bilish (suvni xor qilmaslik, daraxt kesmaslik kabi afsonaviy taqiqlar) ekologik madaniyatning ibtidosi bo'lgan. Har bir xalqning go'zal va ajoyib afsonalari bor. Ular mavzu bo'yicha har xil: qahramonlar ekspluatiyasi, geografik ob'ektlarning nomlari haqidagi hikoyalar, g'ayritabiiy mavjudotlar haqidagi qo'rqinchli hikoyalar va sevgilining romantik hikoyalari haqida afsonalar. [2:184-185] Shuningdek, xalq dardida o'zini qurbon qilgan odamlar haqida ham turli xil afsonalar mavjud. Bunga misol qilib "Shiroq" afsonasini olishimiz mumkin. Quyida shu afsonani qisqacha tahlil qilamiz:

Eron shohi Doro I ulkan qo'shin bilan sak (skif) qabilalari yashaydigan Turon hududiga bostirib kiradi. Saklar oqsoqollari (Sakpar, Omarg, Oamiris) dushmanga qarshi kurashish yo'llarini o'ylashayotgan bir paytda, cho'pon Shiroq o'zining jasoratli rejasini taklif qiladi. Shiroq Doroning qo'shinini yo'ldan urib, suvsiz va oziq-ovqatsiz cho'lga boshlab borishni va ularni shunday yo'q qilishni rejalashtiradi. U dushman ishonchini qozonish uchun o'z qulog'i va burnini kesib, yuzini tilib, fors lageriga boradi. Shiroq o'zini o'z xalqi tomonidan jazolangan deb ko'rsatadi va Doro I ga yo'l boshlovchilik qilishni taklif qiladi. Doro uning so'zlariga ishonib, uni o'z qo'shiniga yetakchi qilib tayinlaydi. Shiroq forslarni cho'lning eng suvsiz va qarovsiz joylariga boshlab boradi. Yetti kun davomida suv va oziq-ovqat tugaydi. Sakkizinchi kun ochlik, to'qqizinchi kuni esa kuchli tashnalik boshlanadi. Doro aldanganini tushunadi. Doro Shiroqni o'ldirishni buyuradi. Shiroq esa vatan yo'lida jonini fido qilganidan g'ururlanib, o'z xalqini qutqarib qolgani uchun sharaf bilan o'limni qarshi oladi. Afsona antik davr yunon tarixchisi Poliyenning "Harbiy hiylalar" ("Strategmalar") asarida qayd etilgan voqealarga asoslangan. Shiroq sak-massaget qabilalarining mard farzandi sifatida tasvirlangan. Shiroq — oddiy cho'pon bo'lsa-da, o'ta aqlli, harbiy hiylani yaxshi biladigan va eng muhimi, o'z jonidan vatanini ustun qo'ygan fidoyi inson. U o'zini "tirilgan qurbonlik" sifatida ko'rsatadi. Shiroq afsonasi yosh avlodni yurtga sadoqat, mardlik va fidokorlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. U vatan ozodligi uchun eng so'nggi nafasgacha kurashish namunasi hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qadimgi mif va afsonalar insoniyatning ma'naviy poydevoridir. Ular madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi universal til vazifasini o'taydi. Mifologik merosni chuqur o'rganish hozirgi zamon adabiyoti va san'atidagi ramziy obrazlar mohiyatini ochishga, qolaversa, milliy qadriyatlarning tarixiy ildizlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sodiqova T. O'zbek folklorida mifologik obrazlar tahlili. – Toshkent, 1999
2. Mifologiya: Ensiklopediya – Toshkent 2004.
3. Meletinskiy Ye.M. Mif poetikasi – Moskva 2000.
4. To'rayev D. Mifologiya – Toshkent 2018
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent 2010.